XORAZM SHAROITIDA TURLI XIL O‘RIK PAYVANDLARIGA PAYVANDLANGAN ARZAMI KURTAKLARINI TURLI MUDDATLARIDA TUTUVCHANLIGINI ANIQLASH.

Zuftarov Erkin Aybekovich
Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti
Ilmiy kotibi, q.x.f.f.d.,k.i.x
Saporbayev Ko‘palboy Oybek o‘g‘li
Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o‘rik payvandtaglari — yovvoyi o‘rik, Mirobolan 29, Mirobolan 29C, Best va Drujba — ning turli muddatlarda arzami kurtaklarga payvandlashni dala sharoitida tutuvchanlik darajasini o‘rganildi. Tadqiqot davomida kurtaklarni tutuvchanligi tashqi muhit omillaridan biri bo‘lgan havo haroratiga bog‘liligi ilmiy asosda tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, Mirobolan 29C va Mirobolan 29 da kurtaklarni tutuvchanligi yaxshi natijani ko‘rsatgan bo‘lsa, yovvoyi o‘rik va Drujba payvandtaglari kech rivojlanishi va yuqori ekologik moslashuvchanligi bilan ajralib turdi. Best payvandtagi esa o‘rtacha va muvozanatli rivojlanish ko‘rsatkichlarini namoyon etdi. Tadqiqot natijalari hududiy iqlim sharoitiga mos payvandtag tanlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Yovvoyi o‘rik, mirobalon 29, Mirobolan 29c, best, drujba, kurtak payvand, payvandlash muddatlari.

Kirish.

O‘zbekiston sharoitida asosan mevali ko‘chatlar ko‘paytirishda asosiy usullaridan biri bu kurtak payvand qilish yo‘li bilan ko‘paytiriladi. Kurtak payvand qilingan mevali ko‘chatlar ko‘karuvchanligi, baquvvatligi, standart ko‘chatlar chiqishi yuqorililigi bilan

ajralib turadi. Kurtak payvandlash ishlari hududlarga qarab asosan yoz oylarida amalga oshiriladi.

Kurtak payvandlash ishlarining boshlanishi va tugashining aniq sanasini belgilash qiyin, chunki u mintaqaning iqlim sharoitiga, payvandtaglarning yoshi va nasl-nav holatiga, payvandlangan navlarning novdalarining pishib etish darajasiga chambarchas bog‘liq. To‘liq rivojlangan, ammo harakatsiz bo‘lmagan payvandtaglarni payvandlash uchun juda erta sanalar xavflidir, chunki ko‘zlarning erta unib chiqishi va qishda ular nobud bo‘lishi mumkin. Agar payvandlash juda kech qilinsa (avgust oyining oxirida), kurtaklar zaxira bilan yaxshi o‘sishga vaqt yetmaydi va bu ham ularni muzlashining sabablaridan biridir [27; 76-b.]; [184; 68-b.].

Material va metodlar.

Mevali daraxtlarni ko‘paytirishda asosiy ko‘paytirish usuli kurtak payvand qilish hisoblanadi. Robert Sharrockning “Methods and Techniques of Bud Grafting in Fruit Trees” asarida payvandlashning bir nechta usullarini, jumladan T-simon va plastinkali kurtak payvandni tasvirlab bergan.

Shu tavsiyalarga asosan tajribamizni Robert Sharrockning foydalanilgan metodiga asosan tajribamizni amalga oshirildi.

1-Tajriba. payvandlash usuli va muddatining kurtak tutishi.

Bir xil rivojlanishdagi, sog‘lom va kasalliklardan holi o‘rik payvandtaglari tanlanadi. Tuproq, sug‘orish va parvarish sharoitlari imkon qadar bir xil bo‘lishi kerak.

Kerakli navga mansub, sog‘lom va yaxshi rivojlangan kurtakli novdalar olinadi. Payvandtaglar va navli novdalarning kelib chiqishi qayd etiladi.

Belgilangan variantlarga muvofiq T-simon, usulda kurtak payvand qilinadi. Har bir ko‘chatga variant raqami qo‘yiladi.

Payvand joylari tekshiriladi, namlik me’yorida saqlanadi va begona o‘tlar yo‘qotiladi. Bog‘lash materiali kurtakni siqib qo‘ymasligi nazorat qilinadi.

Payvanddan keyin kurtakning tutishi, ko‘karishi, novda uzunligi va poya diametri belgilangan muddatlarda o‘lchanadi.

Tajriba variantlarini belgilash

Masalan, uchta payvandlash usuli va uchta muddat bo‘yicha quyidagi tajriba rejasini tuzish mumkin.

Variant	Payvandlash usuli	Muddat
1	T-simon	15-iyun
2	T-simon	1-iyul
3	T-simon	15-iyul

Har bir variantni kamida 3 ta takrorlanishda joylashtirish mumkin. Ko‘chatlar soni tajriba imkoniyati va statistik tahlil talablariga qarab belgilanadi. Muddatlar mahalliy iqlim va payvandtagning fiziologik holatiga moslashtiriladi.

Natijalarni hisoblash

Payvandning tutish foizi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = \frac{n}{N} * 100$$

Bu yerda:

- T — payvand tutish foizi;
- n — tutgan kurtaklar soni;
- N — jami payvand qilingan kurtaklar soni.

Misol: 50 ta kurtak payvand qilindi, ulardan 41 tasi tutdi:

$$T = \frac{41}{50} * 100 = 82$$

Demak, payvandning tutish darajasi 82% ni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari.

Shimoliy hududlardan biri bo‘lgan Xorazm viloyatida kurtak payvand qilish asosan avgust oyining ohiri va sentabr oyi boshlarida qilinadi. Olib borilgan tadqiqotimizda O‘rik payvandtaglarining har biridan 50 donadan ko‘chatlar tajriba uchun olindi.

Payvandtaglar uchun sinov sifatida olingan payvandustdan 2-namunamiz bu Ruhi juvonon navi hisoblanadi. Bu navni Xorazm sharoitiga mos o‘rik navlari hisoblanadi. Tajriba uchun olingan standart payvandtag sifatida olingan yovvoyi o‘rik payvandtagiga payvandlash uchun olingan payvandust sifatida ruhi juvonon navini 20-avgust sanasida payvandlaganimizda shu narsani ko‘rdikki, tajriba uchun olingan 50 dona payvandtaglardan 34 donasi tutgan. Lekin qolgan payvandgalar ya’ni 16 donasi nobud bo‘ldi. Keyingi tajribamizni 30-avgust sanasida payvandtaglarni payvandlaganimizda tutgan kurtaklar 50 donasidan 36 donasi tutganligini, tajribada kuzatdik. Ammo 14 donani kurtak payvandda tutmaganligini tajriba ko‘rdik.

10-sentyabrdagi tajribamizda o‘rik payvandtagini payvandlaganimizda 38 dona kurtaklar tutganligi aniqlandi, lekin 12 dona kurtak tutmaganligini tajribada kuzatildi.

Mirobolan 29 payvandtagini 20-avgust sanasida payvandlaganimizda kurtaklarni tutganlik darajasini aniqlash uchun kuzatdik natijada 50 dona kurtakdan 35 donasi tutganligini tajribada kuzatdik, afsuski, 15 dona kurtak tutmaganligi malum bo‘ldi. Keying tajribada 30-avgust sanasida payvandtaglarni payvandlaganimizada payavandtaglarni tutuvchanlik darajasi oshib borayotganligini tajribada kuzatildi. Buning sababi avgust oyi ohiriga borib harorat nisbatan pasayishi degan xulosaga kelindi. 50 dona ko‘chatdan 37 donasida ijobiy natija berildi.

10-sentyabr sanasida qo‘yilgan natijaga ko‘ra tutgan kurtaklar soni 40donani tshkil qildi. Ammo 10 dona ko‘chat nobud bo‘ldi.

Keying tajriba uchun olingan payvandtagimiz bu Mirobalon 29c payvandtagini kurtak payvandlash uchun olingan ruhi juvonon kurtaklarini tutuvchanligi 50 dona kurtakdan 35 donasini tutganligini tajribada kuzatildi. Afsuskiy tajribada 15 dona ko‘chat yaroqsiz formada qoldi.

30-avgust sanasida payvandlangan mirobolon 29c payvandtaglarimizni tutganlik darajasini tekshirganimizda tajribamizda ijobiy natijalr soni oshib borayotganligini kuzatildi, ya’ni 37 dona kurtakda yaxshi kursatkichlarni ko‘rish mumkin. Bazan payvandlangan kurtaklar tutmay qolish holatlari ko‘p kuzatishimiz mumkin kozirgi tajribamizda ham shunday holatlar ro‘y bergan 13 dona kurtak tajribamizda tutmagan.

10-sentyabrdagi tajribamizda mirobolon 29c payvandtagimizda payvandlagandan keyin tutgan kurtaklarni soni 38 donani ko‘rsatmoqda bu esa boshqa payvandtaglarga nisbatan yaxshi natija ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tajriba uchun olingan payvandtaglarimizdan biri bu Best payvandtagi bu payvandtagimizni 20 avgust sanasida payvandust sifatida o‘rik navlaridan biri bo‘lgan ruhi juvonon kurtaklarini kurtak payvand qilingandan olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, 50 dona kurtakdan 27 donasida kurtaklar ijobiy natija ko‘rsatyotkanini ko‘rishimiz mumkin. Qolgan kurtaklarda bo‘lsa tashqi muhit omillarimi yoki biotik omillar tasiridami nobud bo‘lganlar soni ko‘proqni ko‘rsatmoqda ya’ni 23 donani tashkil qilmoqda.

30-avgust sanasida payvandtaglarimizda biri bo‘lgan best o‘rik payvandtagimizni kurtak payvandtaglarni tutganlik darajasini aniqlash uchun olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, 29 dona payvandtagimizda ijobiy natijalar ko‘rsatdi.

10-sentyabrdagi kurtak payvand qilingan payvandtaglar tutuvchanlik darajasini aniqlash uchun olib borilgan kuzatuvlar quyidagi ko‘rinishda nomoyish qildi, ya’ni 32 dona ko‘chat olishga erishildi. Ammo qolgan ko‘chatlarda 28 donasida tutmaganligi ko‘rilmoqda.

Ohirgi o‘rik payvandtagimiz bu drujba payvandtagi hisoblanadi uni tajriba uchu 20-avgust sanasida kurtak payvand qilingan kurtaklarni tekshirganimizda 28 dona kurtaklard tutganligini tajribada ko‘rildi. Ammo tajribada payvandtaglar orasida kurtak payvand ushamagan kurtaklar ham mavjud ular 22 donani tashkil qildi.

Keying tajribamiz 30-avgust sanada kurtak payvandlarni tutganlik darajasini aniqlash maqsadida olib borilayotgan tajribamizda 31 dona payvandtagimizda kurtak payvand ijobiy natija ko‘rsatdi.

Oxirgi tajribamizda payvandtagimizni 10-sentyabr sanasida payvandlaganimizda, olingan natijalar quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi, bunda 33 dona tayyor ko‘chat olindi.

1-jadval

O‘rik payvandtaglariga payvandlangan ruhi juvononon navining tutuvchanligiga payvand qilish muddatlarining ta’siri, 2026-yil.

Payvand qilish muddatlari	Jami payvand qilingan kurtaklar	Kurtaklarning tutuvchanligi, dona
Yovvovi o‘rik payvandtagi – nazorat		
20-avgust (nazorat)	50	34
30-avgust	50	36
10-sentyabr	50	38
Mirabolon 29 payvandtagi		
20-avgust	50	35
30-avgust	50	37
10-sentyabr	50	40
Mirabolon 29c payvandtagi		
20-avgust	50	33

30-avgust	50	37
10-sentyabr	50	38
Drujba payvandtagi		
20-avgust	50	28
30-avgust	50	31
10-sentyabr	50	33
Best payvandtagi		
20-avgust	50	27
30-avgust	50	29
10-sentyabr	50	32

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mirobolan 29 va 29C kuchli payvandtag arzami navi uchun
- Yovvoyi o‘rik va Drujba o‘rtacha payvandtag arzami navi uchun
- Best payvandtagi kuchsizroq payvandtag arzami navi uchun

Adabiyotlar

1. R.Yunusov, K.Umarov, B.Karimov. Bog‘dorchilik o‘quv qo‘llanma.: T 201. 45 b.

2.Bo‘riyev.X Havaskor bog‘bonga qo‘llanma. T.: 2002, 145 b.

3. Ribakov.A.A, Ostrouxova S.A. O‘zbekiston mevachiligi. T.: 1981. 245 b

4. Xudoyberdiyev mevali ekinlarning ekish morfologiyasi. T.: 2021. 26b.